

## ZAMONAVIY RAHBAR KASBIY FAOLIYAT MADANIYATI

**Jumaniyazova Sadoqat Ibragimboyevna**

**Xorazm viloyati, Xonqa tumani 3-son  
DMTT direktori**

### Annotatsiya

Maqolada MTT rahbarlarning boshqaruv jarayonida egallashi kerak bo'lgan kasbiy madaniyati, kasbiy faoliyat madaniyati kriteriyalari, pedagogik jarayonda qo'llaniladigan yondoshuvlar, kasbiy etiket qoidalari haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: boshqaruv, kompetentlik, madaniyat, faoliyat, muloqot, munosabat, etika, tashabbuskorlik, fazilat, xislat.

Maktabgacha ta'lim tizimi zamonaviy rahbari – bu yuksak boshqaruv madaniyatiga ega shaxsdir. Ko'pgina mutaxassislar boshqaruvni faoliyat turi sifatida belgilab, ob'ekt va sub'ektga ta'sir o'tqazish orqali pedagogik tizimni yangi sifatga o'tkazish jarayoni deb qaraydilar.

Kompetentlik, keng dunyoqarash, tashabbuskorlik, umumiy madaniyat kabi fazilatlar MTT rahbariga pedagogik va adminstrativ vazifalarni tezkor yechishga yordam berib, mutaxassis va xodimlarni to'g'ri taqsimlash va ularning vazifalarini belgilash, har bir xodim faoliyatini rag'batlantirish kabi jarayonlarni to'g'ri tashkil etishga yordam beradi.

Boshqaruv sikli strukturasi ob'ektlardan (maqsad, tarkib, resurslar, metodlar, uslublar, muhit, natija) va sub'ektlardan (bola, pedagog, mutaxassislar, ota-onalar) tashkil topgan bo'lib, to'g'ri va aks ta'sir pedagogik kengash, seminarlar, qarorlar, ishontirish, muloqot, ta'sir o'tqazish, konferensiyalar, ota-onalar yig'ilishlari va h.k.); shuningdek, sub'ektning ob'ektga ta'sir o'tqazish mexanizmlari loyihalashtirish, axborot yig'ish, taqqoslash, tahlil, nazorat, o'z-o'zini baholash, attestatsiya, o'z-o'zini tahlil qilish va h.k.kabi jarayonlar kiradi.

Rahbarning kasbiy faoliyat madaniyati muhim kriteriyalariga birinchi bu davlat ta'lim talablarini bajarishda maqsadga muvofiq va maqsadni to'g'ri belgilashni bilishi, ikkinchisi: loyihalashtirilayotgan modelda (rejalar, dasturlar, konsepsiyalar) pedagogik jarayonlar ob'ekt va sub'ektini tizimli ko'ra olish qobiliyati, uchinchisi: boshqaruvga statistik yondoshuv (masalan, tahlil metodi va statistik nazorat); to'rtinchisi- dasturlar o'zgaruvchanligi, boshqaruv sub'ektini xilma-xillik bilan ta'minlash, qabul qilingan qarorlarning sifati va samaradorligini optimallashtirishni ta'minlaydigan texnologiya alternativlari kiradi.

Agar ta'lim tizimini boshqarish bir butun, maqsadga muvofiq, tizimli, o'zgaruvchan va alternativ pedagogik jarayonga olib kelsa bu rahbarning kasbiy boshqaruv madaniyati ko'rsatkichi hisoblanadi, ish mazmuni faqat pedagogik tizim va boshqaruv modeli o'rtasidagi munosabatlar dialektikasi orqali aniqlanishi va tushunilishi mumkin.

Pedagogik tizim yaxlitligi pedagogika fanlari doktori R.M.Chumichevani fikriga ko'ra quyidagicha aniqlanadi:

- “maqsadlar daraxti”, MTT rivojlanish dasturini ochib beruvchi konsepsiyasi, MTTning kompleks ta'lim dasturi, rahbarning yillik ish rejasi, mutaxassis va tarbiyachilarning kalendar-tematik rejalarini yaratish;

- Pedagogik jarayonda qo'llaniladigan individual pedagogik texnologiyalar, - metodlar, uslublar, faoliyat usullari, faoliyatni tashkillashtirish turi, muhitni yaratish prinsiplari;
- Pedagogik tizim ob'ektlarining statik va o'zgaruvchan sifat ko'rsatkichlarini ta'lim standartlari va sub'ektlarni metodik tahlil asosida nazorat qilish;
- Pedagogik jarayonlar va bola shaxsiyatining rivojlanishida aks etuvchi pedagogikaning o'ziga xos qonun va qoidalarini professional darajada bilish.

MTT rahbari o'z boshqaruv faoliyatida yuksak natjalarga erishish uchun ish samaradorligiga ta'sir ko'rsatuvchi faktorlarni bilishi va hisobga olishi zarur. Shulardan biri rahbar va bo'ysunuvchilarning jamoada shakllangan o'zaro munosabatlaridir.

O'zaro munosabatlar xarakteri, jamoadagi mikroiklim va undagi hukmron kayfiyat muassasa ishining muvafaqqiyatida hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Etika va etiket zamonaviy jamiyatda katta rol o'ynaydi va xatti-harakat madaniyatining ajralmas qismi hisoblanadi. Hozirgi vaqtda rahbarlar o'zlarining yuksak madaniyatli, professional va kommunikativ fazilatlarini namoyish etishga yordam beruvchi etika va etiket qoidalariga yanada ko'roq e'tibor qaratmoqdalar.

Jamoadagi ish hamkorligini yaratish – uzoq va murakkab jarayondir. U birinchi o'rinda muassasa rahbarining xodimlar hamkorligi faoliyatini tashkillashtira olish, bolalar va ota-onalar bilan hamkorlikda ishlashda tarbiyachilarga yaqindan yordam berish, har bir xodimga individual yondoshuv qobiliyatiga bog'liq.

Rahbarning axloqiy fazilati, xatti-harakatlari jamoadagi munosabatlarni belgilaydi. MTT rahbarining faoliyati murakkab va ko'pqirralidir. Umumiy maqsadlar, vazifalar ostida pedagogik jamoani jipslashtirish uning asosiy vazifasidir.

Zamonaviy rahbardan quyidagi ko'nikmalar talab etiladi:

- Xodimlarning shaxsiy intilishlariga asoslanib, ularning yaxshi tomonlarini ko'ra bilish;
- Jamoada do'stona munosabatlarni o'rnatishga ta'sir ko'rsatish;
- Xodimlar bilan muloqot (pedagogik etika, xushmuomalalik, nafislik, ishonchli tondagi muloqot va h.k.)

Barcha ko'rsatilgan fazilatlar MTTda ishonchli atmosferani yaratilishiga xizmat qiladi.